XALQ DEPUTATLARI KOSONSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-14-123-6-80-K/25 Kosonsoy tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta’minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-172-sonli Farmonining ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2025-yildagi PF-172-sonli farmoni tumanda ijrosini sifat tashkil etish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini xatlovdan o‘takazish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarni tashkil etish bo‘yicha kadastrlar palatasi tuman bo‘limining 15.12.2025yildagi 25-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Kosonsoy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 12-sentabrdagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini ta’minlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-172-sonli Farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2025-yildagi PF-172-sonli farmoni tumanda ijrosini sifat tashkil etish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini xatlovdan o‘takazish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish ishlarni tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman ishchi guruhiga:

-tumanda bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni hisobga olishni;

-tuman hokimligi tasarrufidagi bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning hisobga olinishi va ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar real vaqt rejimida Qishloq xo‘jaligi vazirligining “E-ijara” axborot tizimiga yuborilishini;

-qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning o‘rnatilgan tartibda elektron onlayn auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlash;

-qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan, birinchi navbatda, ikki oy ichida doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilgan yerlardan ruxsat etilgan foydalanishning asosiy turini belgilash ishlarini samarali tashkil etsin va ijrosini ta’minlasin.

-qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer egalariga va foydalanuvchilariga o‘zining yer uchastkalariga bo‘lgan egalik qilish va foydalanish huquqlarini 2027-yil 1-yanvarga qadar Xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida ijara huquqiga o‘zgartirish imkoniyati berilganligi to‘g‘risida batafsil tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etsin.

3. Tuman hokimining matbuot kotibi - Axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (R.Temirov) hamda tuman “Kosonsoynoma” gazetasi, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish vazifasi yuklansin.

4. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining o‘rinbosari G‘.Shodibekov, nazorat qilish Xalq deputatlari Kosonsoy tumani Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va transport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Nuriddinov) zimmasiga yuklatilsin

Kengash raisi **KADIROV DILMUROD GAFUROVICH**

Xalq deputatlari Kosonsoy tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-14-123-6-80-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 12.09.2025 yildagi “Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarda mahsulot yetishtirishning uzluksizligini taʼminlash va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-172-sonli farmoni ijrosini tuman ta’minlash maqsadida tuzilgan ishchi guruh tarkibi

Tuman hokimining qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari	G‘.Shodibekov
Kadastr agentlik tuman bo‘limi	B.Qaxxorov
Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limining ma’sul xodimi	Q.Ashurov
Hudud yer tuzuvchisi	Lavozim bo‘yicha
Kadastrlari palatasi tuman bo‘limi boshlig‘i, ishchi guruh kotibi	M.Sobiroxonov